

**KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARINI XARAKATLI O'YINLARI
VOSITASIDA IJTIMOLIY FAOLLIGINI OSHIRISH ZARURATI
НЕОБХОДИМОСТЬ ПОВЫШЕНИЯ СОЦИАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ
УЧАЩИХСЯ МЛАДШЕГО ШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА ПОСРЕДСТВОМ
ПОДВИЖНЫХ ИГР.
THE NEED TO INCREASE THE SOCIAL ACTIVITY OF PRIMARY SCHOOL
STUDENTS THROUGH ACTIVE GAMES.**

Malikov Ilxomjon Abduraxim o'g'li

Mustaqil tadqiqotchi

ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-1357-4487>

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy maqolada kichik maktab yoshidagi o'quvchilarining ijtimoiy faolligini oshirishda harakatli o'yinlarning o'рни va ahamiyati atroflicha tahlil qilingan. Tadqiqotning asosiy maqsadi harakatli o'yinlarning bolalarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga ta'sirini ilmiy asoslash hamda ushbu vositalardan ta'lim jarayonida foydalanish zaruratini isbotlashdan iborat. Maqolada harakatli o'yinlar orqali bolalarda jamoaviy ishlash, muloqot qilish, qoida va me'yorlarga rioya etish, o'zaro yordam berish va hissiy intellektni rivojlantirish kabi ijtimoiy ko'nikmalarning shakllanish mexanizmlari yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy ta'lim jarayonida bolalarning jismoniy passivligi va virtual muhitga bog'lanib qolishi fonida harakatli o'yinlarning profilaktik va rivojlantiruvchi funksiyalari alohida ta'kidlangan.*

Аннотация: *В данной научной статье подробно анализируются роль и значимость подвижных игр в повышении социальной активности учащихся младшего школьного возраста. Основная цель исследования — научно обосновать влияние подвижных игр на личностное и социальное развитие детей и доказать необходимость использования этих инструментов в образовательном процессе.*

В статье освещаются механизмы формирования таких социальных навыков, как работа в команде, общение, соблюдение правил и норм, взаимопомощь и развитие эмоционального интеллекта, которые формируются посредством подвижных игр. Также, на фоне физической пассивности детей и их привязанности к виртуальной среде в современном образовательном процессе, особо подчеркиваются профилактические и развивающие функции подвижных игр.

Abstract: *This scientific article thoroughly analyzes the role and significance of mobile (active) games in enhancing the social activity of primary school students. The main objective of the research is to scientifically substantiate the impact of mobile games on children's personal and social development and to demonstrate the necessity of utilizing these tools in the educational process. The article highlights the mechanisms for the development of social skills such as teamwork, communication, adherence to rules and norms, mutual assistance, and the development of emotional intelligence, which are fostered through mobile games. Furthermore, against the backdrop of children's physical passivity and attachment to the virtual environment in the modern educational process, the preventive and developmental functions of mobile games are specifically emphasized.*

Kalit so'zlar: *Kichik maktab yoshi, ijtimoiy faollik, o'quvchilar, xarakatli o'yinlar.*

Ключевые слова: *Младший школьный возраст, социальная активность, учащиеся, подвижные игры.*

Keywords: *Primary school age, social activity, students, active games.*

KIRISH.

Bugungi kunda maktab yoshidan boshlab o'quvchilar organizmining shakli va funksiyalarini takomillashtirish, harakatlantiruvchi bilimlar, mahorat va ko'nikmalarni shakllantirish va jismoniy sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik jarayonlar alohida o'rin egallaydi. Umumiy o'rta ta'limni rivojlantirishning zamonaviy dasturlarida o'quv jarayonlarining mahsuldor o'qitishga transformatsiyasi jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida ham o'z aksini topib, bunda jismoniy mashqlar xususiyatlari, o'quvchi va pedagoglarning hamkorlikdagi harakatlari asosida bosqichlashtirish, darslarning jismoniy dinamik vaziyatlar imkoniyatlaridan maqsadli foydalanish ko'zda tutiladi. Jahonda jismoniy tarbiya tizimining eng muhim global sotsiomadaniy yo'nalishlari nazariyasi, shaxsning jismoniy jihatdan o'sishi va rivojlanishining pedagogik qonuniyatlari, yoshga oid psixologik xususiyatlari, jismoniy tarbiya darslariga qo'yiladigan umumdidaktik va xususiy talablari, mashg'ulotlarni texnologik yondashuvlar asosida takomillashtirish yo'nalishlarida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ilmiy tadqiqotlar jismoniy tarbiya darslarida psixojismoniy reabilitatsiyaga va rekreatsiyaga qaratilgan bilimlar, ko'nikmalarni rivojlantirish orqali o'quvchilarning aqliy faoliyat qobiliyatlari darajasini oshirish, pirovard natijada ta'lim sifatini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Yangi O'zbekistonda ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi va metodik ta'minotini kuchaytirish, o'quvchilarning sport bilan muntazam shug'ullanishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish borasida olib borilayotgan islohotlar jismoniy tarbiya mashg'ulotlari jozibadorligini oshirib, ta'lim oluvchilarning unga bo'lgan qiziqishi va e'tiborini yanada kuchaytirishga zamin yaratmoqda. O'zbekistonda yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash chora-tadbirlarida "yoshlar jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanishi, bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishi uchun shart-sharoitlar yaratish, ular o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish" kabi vazifalar belgilangan. Bu esa kichik maktab yoshidagi o'quvchilari jismoniy tarbiyasining zamonaviy maqsad va vazifalari, nazariy-metodologik asoslari, jismoniy tarbiya darslarining hozirgi bosqichidagi xususiyatlarini aniqlashtirish, darslarni loyihalashtirish texnologiyalari asosida takomillashtirish imkoniyatlarini kengaytirish, o'quv-metodik ta'minotini rivojlantirish zaruratini yuzaga keltirib, mazkur zaruratnixonal etilishi esa ta'lim-tarbiya berish jarayonlari samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Shaxsning ijtimoiy faolligini shakllantirish vazifasi o'sub kelayotgan avlodni tarbiyalashning eng muhim vazifalari qatoriga kiradi. Aynan shu sababdan u pedagogika fanining muammoli sohalaridan biri hisoblanadi.

Ijtimoiy-siyosiy xususiyatga ega bo'lgan keskin ijobiy o'zgarishlar yuz bergani, har bir insonni shaxs sifatida shakllantirishi kerak bo'lgan jamoat tizimini shiddat ila tezkor sur'atda qilib qo'ygani tufayli yuzaga keldi. Natijada jamiyatda o'sib kelayotgan avlodning o'zaro

munosabatlarini tarbiyalashda an'anaviy pedagogik yondashuvlarning samaradorligi pasaydi. Bu borada eng ko'p e'tiborni talab qiladigan davr — kichik maktab yoshidir, chunki kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning rivojlanishi bo'yicha olimlar bir qator salbiy tendensiyalarni qayd etmoqda.

Xususan, D.I.Feldshteyn «bolalar, o'smirlar va yoshlarning qadriyat yo'nalishlarida jiddiy o'zgarishlarni» ta'kidlab, bunday o'zgarishlar nafaqat 2000-yillar o'rtasi, balki yangi o'n yillik boshi bilan solishtirganda ham kuzatilganini qayd etadi¹⁹. U 2007 yildan boshlab intellektual, irodaviy va somatik qadriyat yo'nalishlarining birinchi o'ringa chiqqanini alohida ta'kidlaydi. Bolalar uchun eng muhim bo'lib qolgan narsalar — tor doiradagi bilimlilik va qat'iyat, qat'iylilik, yuqori darajadagi muvaffaqiyatga intilish kabi sifatlar, shuningdek, ommaviy standartlarga mos keladigan tashqi ko'rinishdir. «Lekin shu bilan birga, asosiy va axloqiy qadriyatlar — mehribonlik, toqatlilik, hamdard bo'la olish kabi sifatlar ushbu iyerarxiyada oxirgi o'rinlarni egallamoqda. O'quvchilarning madaniy va jamoatchilik qadriyat yo'nalishlarida salbiy dinamika kuzatilmoqda»²⁰. Ushbu qayd etilgan barcha o'zgarishlar kichik kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning ijtimoiy faolligiga ham ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi.

Jismoniy tarbiyaning kichik maktab yoshidagi o'quvchilari hayotidagi o'rni va rolining umumiy tendensiyasi shundan dalolat beradi-ki, ilmiy-texnika taraqqiyoti natijasida bolalarning harakatlantiruvchi faoliyati keskin kamaygan. Agarda oldin shifokor bolalar sog'lig'i o'quv jarayonining qoniqarsiz tashkil qilinishi (sport zallarining yetarlicha yoritilmaganligi, yaxshi shamollatilmaganligi, o'quv mashg'ulotlarining ortiqchaligi) sababli yomonlashishini qayd qilgan bo'lsa, zamonaviy maktabda sog'liqqa ta'sir qiluvchi boshqa xavf-xatar omillari (kompyuterlashtirish, o'qishni intensivlashtirish, harakatlantiruvchi faollikning pasayishi)ni ham ko'rsatish mumkin.

Ta'kidlash joizki, ilmiy an'analarning muayyan davrlarda «ijtimoiy faollik» tushunchasi, garchi uning ma'naviy jihatidan ancha kengroq bo'lsa-da «fuqarolik faolligi» va «fuqarolik pozitsiyasi» tushunchalari bilan almashtirilgan, ilmiy adabiyotlarda «ijtimoiy faollik» tushunchasining talqinlarida bir necha bosqichni ajratib ko'rsatish mumkin: birinchi bosqichda (XX asr 20-yillari) bu tushuncha ijodkorlik, tashabbuskorlik va inqilobiy jo'shqinlik sinonimi sifatida qaralgan²¹; keyingi davrda, 30-60-yillarda ilmiy muhitda buzilish yuz berdi va faollik tushunchasi faqat ijrochilik, intizomlilik va tizim ideallariga to'liq bo'ysunish bilan bog'landi; keyingi bosqich - 60-yillardan boshlab eng keng tarqalgan yondashuvlar ijtimoiy faollikni insonning faol hayotiy pozitsiyasi sifatida qaraydi, bu pozitsiya uning ideologik prinsipiialligi va muayyan qarashlarni himoya qilishdagi izchilligi, so'z va amal birligida namoyon bo'ladi; keyingi bosqich — XX asr 70-yillaridan boshlab shaxs faolligi muammosi erkin tanlov imkoniyatlari bilan bog'liq holda, ijtimoiy muhit va shaxsning «subyekt» va «obyekt» kategoriyalari doirasidagi o'zaro aloqasi sifatida, ijtimoiy faollikning jamoatchilik

¹⁹ Фельдштейн Д.И. Психология развития личности в онтогенезе: избранне труды. — Москва: МПСИ; Воронеж: МОДЕК, 2010. — 648 с.

²⁰ Фельдштейн Д.И. Психолого-педагогические проблемы развития образования в современных условиях // Изменяющийся мир и ребенок: психолого-педагогические проблемы. — М.: Психологический институт РАО, 2011. — С. 408–428.

²¹ Макаренко А.С. О воспитании в семье и школе // Собрание сочинений: в 4 т. — М.: Правда, 1987. — Т. 4. — С. 78–89.

munosabatlariga qo'shilishi usuliga qarab va ijtimoiy munosabatlarga tayanib qiziqish va ehtiyojlarda ifodalangan kategoriya sifatida ko'rib chiqila boshlandi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Tushunchaning ko'p ma'noligi o'smirlarning ijtimoiy faolligining asosiy xususiyatlari, shakllanish omillari hamda uning shakllanganlik mezonlarini aniqlashtirishni, shuningdek, muayyan tarbiyaviy model qurish uchun zarur qiladi.

«Faollik» so'zi lotincha *activus* — «harakat qiluvchi, faol» so'zidan kelib chiqqan. V.I.Dalning «Tushuntirma lug'ati»da²² «faol» so'zi «harakatchan, faol, jonli, kosni emas» ma'nosida talqin qilinadi. Texnik fanlarda bu tushuncha o'rganilayotgan obyektning atrof-muhit bilan o'zaro ta'siri darajasining yuqoriligini ko'rsatish uchun ishlatiladi.

Falsafa, psixologiya, sotsiologiya, pedagogika, ijtimoiy psixologiya kabi gumanitar fanlarda «faollik» tushunchasi o'ziga xos ma'no kasb etadi, u «tirik mavjudotlarning ixtiyoriy harakatlar qilish va tashqi yoki ichki stimul-qo'zg'atuvchilar ta'siri ostida o'zgarish qobiliyatini ifodalovchi tushuncha... U ko'proq amalga oshirilayotgan harakatlarning ichki holatga bog'liqligi bilan xarakterlanadi».

Inson faoliyati va faolligi tadqiqotchilar tomonidan bir xil tushunchalar sifatida qaralmaydi. Ular o'rtasida jiddiy farq mavjudligiga qaramay, o'zaro uzviy bog'liqdir. Ushbu tushunchalarni ehtiyojlar (maqsadlar) nuqtai nazaridan tahlil qilganda, faoliyatning asosida aniq, moddiy maqsadga (obyektga) ehtiyoj yotsa, faollikning asosida esa faoliyatga bo'lgan ehtiyoj yotadi, ya'ni uning muhim komponenti ichki harakatlantiruvchi kuchdir. Shu sababli V.G.Mordkovichning xulosasiga e'tibor qaratish lozim: u faollikni subyektivlikning asosiy belgisi deb biladi. Inson muayyan sharoitlarda «faoliyat tashuvchisi» sifatida harakat qilishi mumkin. Bu sharoitlar harakatlarning o'z ixtiyori bilan emas, faoliyatga bo'lgan o'z ehtiyoji shakllanmasdan amalga oshirilishini anglatadi. Bu obyekt pozitsiyasi bo'lib, V.G. Mordkovich uni «ijtimoiy faollik»ka qarama-qarshi qo'ygan «ijtimoiy passivlik» kategoriyasi bilan belgilaydi.

Shunday qilib, psixologiya, sotsiologiya va pedagogikada inson shaxsiyatining jamoatchilik xususiyatiga — uning faqat jamiyatda yashashi tufayli yuzaga kelishi va rivojlanishiga urg'u beriladi. «Insonni tabiat yaratadi, lekin uni rivojlantiradi va shakllantiradi jamiyat».

Ijtimoiy psixologiyada shaxs tadqiqotchilar tomonidan ijtimoiy munosabatlar va ongli faoliyat subyekti sifatida ta'riflanadi. Shaxs strukturasi insonning barcha psixik xususiyatlari hamda organizmining fiziologik xususiyatlari kiradi. Insonning ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan psixik xususiyatlari, munosabatlari va harakatlarining majmui uning rivojlanish jarayonida shakllanadi va xulq-atvorini belgilaydi. V.G. Krisko ijtimoiy psixologiya tizimida shaxsni «muayyan davlat, jamiyat va guruh (ijtimoiy, etnik, diniy, siyosiy, jinsiy va hokazo) vakili bo'lgan, atrofidagi odamlar va ijtimoiy voqelikka munosabatini anglagan, barcha ijtimoiy munosabatlarga jalb qilingan, o'ziga xos faoliyat turlari bilan shug'ullanadigan va o'ziga xos individual hamda ijtimoiy-psixologik xususiyatlarga ega bo'lgan aniq inson» deb ta'riflaydi.

XULOSA

Bugungi kunda kichik maktab yoshidagi o'quvchilarining haddan tashqari televidenie va kompyuter o'yinlariga berilib ketishi kuzatilmoqda. Buning o'ziga xos salbiy oqibatlar

²² Даль В.И. Толковый словарь живого великорусского языка: в 4 т. — М.: Гос. изд-во иностранных и национальных словарей, 1955 (репр. воспр. изд. 1880–1882 гг.).

mavjud. Chunki, insonning o'sishi, rivojlanishi va sog'lig'i to'g'ridan-to'g'ri uning harakatdagi faolligiga bog'liqdir. Hozirgi zamon maktabida o'quvchilar serharakatlilik mavjud. Bu katta o'quv yuklamalari bilan birga kichik maktab yoshidagi o'quvchilari sog'lig'iga salbiy ta'sir etadi. Bu tayanch biologik funksiyalarning buzilishiga, kichik maktab yoshidagi o'quvchilari orasida kasalliklarning ko'payishiga, muhim psixofiziologik jarayonlar (fikrlash, aqliy ish qobiliyati, diqqat, xotira)ning buzilishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 avgustdagi "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va ulargata'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3907-son Qarori.- O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2018 y., 07/18/3907/1706-son.
2. Фельдштейн Д.И. Психология развития личности в онтогенезе: избранне трудй. – Москва: МПСИ; Воронеж: МОДЕК, 2010. – 648 с.
3. Фельдштейн Д.И. Психолого-педагогические проблемы развития образования в современных условиях // Изменяющийся мир и ребенок: психолого-педагогические проблемы. – М.: Психологический институт РАО, 2011. – С. 408–428.
4. Макаренко А.С. О воспитании в семье и школе // Собрание сочинений: в 4 т. – М.: Правда, 1987. – Т. 4. – С. 78–89.
5. Фельдштейн Д.И. Психолого-педагогические проблемы развития образования в современных условиях // Изменяющийся мир и ребенок: психолого-педагогические проблемы. – М.: Психологический институт РАО, 2011. – С. 408–428.
6. Ситаров В.А. Социальная активность личности: сущность, структура, развитие. – М.: МПГУ, 2005. – 184 с.
7. Вульфов Б.З. Социальная активность личности: сущность и пути формирования // Воспитание школьников. – 1989. – № 5. – С. 24–29.
8. Даль В.И. Толковый словарь живого великорусского языка: в 4 т. – М.: Гос. изд-во иностранных и национальных словарей, 1955 (репр. воспр. изд. 1880–1882 гг.).
9. Qurbonov Sh., Abdullayeva M. Gumanir fanlarda faollik tushunchasi: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan, 2015. – 88 b.
10. Мордкович В.Г. Социальная активность личности: сущность и критерии // Социологическйз исследования. – 1984. – № 4. – С. 48–58.